



**TOLA AJRATISHDA PAXTA XOMASHYOSINI TA'MINLAGICH
MOSLAMALARI TAHLILI**

X.Q.Raxmonov

BuxDTU t.f.d prof.

rakhmonov@gmail.com +998907187125

A.A.Temirov

BuxDTU tadqiqotchi

azamattemirov@gmail.com +998914445219

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18933016>


Jahonda paxtani dastlabki ishlashda ilmiy asoslangan texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarish va ishlab chiqarishga joriy etish doirasida keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, jumladan paxta tozalash korxonalari oldida turgan va echilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalardan biri ishlab chiqarishga zamonaviy texnikalarni joriy etish bilan paxtani quritish va iflosliklardan tozalashda mahsulot yo'qolishini keskin kamaytirib, sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishdan iborat.

Bunda paxta tozalash korxonalarining asosiy uskunalaridan bo'lgan paxtani quritish va iflos aralashmalardan tozalash uskunalarini resurstejamkorligini oshirish bilan paxtani samarali quritish va tozalash texnologiyasini ishlab chiqish, parametr va ish rejimlarini asoslash bilan yuqori va past navli ma'lum namlik va ifloslikka ega bo'lgan paxtalarni quritish va tozalashda yonilg'i sarfini tejash bilan birga ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sifatini yaxshilashga alohida e'tibor berilmoqda.

Mavjud bo'lgan texnologik mashina va agregatlarni paxta xomashyosi bilan ta'minlash jarayonida paxtani uzluksiz ta'minlanishi tashkil etilib, ta'minlovchi valiklar orqali qoziqchali barabanlarga va bevosita keyingi tola ajratish jarayoniga uzatiladi. Ushbu jarayonda dastlabki ta'minlash valiklariga tushayotgan paxta xomashyosining nomutanosibligi oqibatida ta'minlagichda paxtaning tiqilishi, yaxshi titilmasligi, va paxta keyingi jarayonga bir meyorda uzatilmassligi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida tola ajratish jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. *Sanoatda ta'minlovchi moslamalarning titkilovchi valiklari: shnekli-qoziqchali, qoziqchali, arrachali disk turlaridan foydalaniladi.*

Ta'minlagichlar tola ajratish mashinalarining asosiy ishchi qismlaridan biri bo'lib, uning ustiga o'rnatilgan ta'minlagichlarning asosiy vazifasi: tolasini ajratishga berilgan chigitli paxtani jinning ishchi kamerasiga yaxshi titilgan holda, bir tekisda uzatib berishdan iborat.






PD markali bir barabanli ta'minlagich uskunasining sxemasi 1.1.2-rasmda keltirilgan Hozirgi kunda, tola ajratish mashinalarining ta'minlovchi moslamalari sifatida PD markali ta'minlagichlardan keng foydalaniladi. Paxta xomashyosining bir barabanli PD markali ta'minlovchi moslamasining ishlash jarayoni quyidagicha: Paxta xomashyosi ta'minlagich ustiga o'rnatilgan shaxtaga tushadi. Bir-biriga nisbatdan qarama-qarshi aylanma harakatlanadigan ta'minlash valiklari chigitli paxta xomashyosini yuqoridagi shaxtadan bir tekisda qoziqchali barabanga uzatish bilan birgalikda, ushbu

qoziqchali baraban chigitli paxtani titib to'rli yuzalar ustidan sudrab o'tkazadi, hamda uni mayda xas-cho'plardan tozalaydi. Ma'lum miqdorda tozalangan paxta xomashyosi qoziqchali baraban yordamida keyingi qism bo'lgan novga uzatiladi va jinlash mashinasining ishchi kamerasiga kelib tushadi.

Malum bo'lgan bu konstruktsiyaning kamchiligi undagi magnet doskasi faqat qisman metall chiqindilarni ushlab qoladi. Bu esa paxta xomashyosi tarkibiga metall chiqindilardan tashqari, yuqorida o'rnatilgan taminlagichning to'rli sirtidan o'tmay qolgan kichik o'lchamdagi metall va undan farqli chiqindilarni xomashyo tarkibiga qo'shilishini keltirib chiqaradi. Natijada ushbu chiqindi va metall jismlar arrali jinning ishchi organlariga salbiy tasir ko'rsatadi.

Arrali jinning asosiy mexanizmlari, ta'minlagich, arrali silindr, ishchi kamera, kolosnikli panjara va chigit tarog'idan iborat bo'lib, taklif etilayotgan ushbu arrali jin esa undan chiqadigan tola sifatini, tozalash samaradorligini va jinning puxtaligini oshirish maqsadida ta'minlovchi valiklar ustiga buferli baraban, o'rnatilganligi bilan farq qiladi.



2.1-rasm. Paxta bo'lakchalarini buferli barabanga tushish sxemasi

Paxta oqimini buferli baraban ta'sirida ta'minlovchi valikga bir tekis uzatish va shu orqali ta'minlash valigidagi yuklamani kamaytirib ishchi kameraga paxta oqimi zichligini bir xilda uzatish, natijada undan chiqadigan tola sifatini, tozalash samaradorligini va jinning puxtaligini oshirishga xizmat qiladigan bufer barabanning paxta oqimiga ta'sirini nazariy tahlil qilingan.

Adabiyotlar ro'yxati

- 1.X.Q. Raxmonov, Sh.H. Behbudov. "Yengil sanoat xomashyolarini dastlabki ishlash" Buxoro-2015y
- 2.X.Q. Raxmonov, A.A. Temirov DP-130 Arrali jinning ishchi organlari konstruksiyasini takomillashtirish. Central asian journal of education and innovation. 2022. Volume 1, Issue 2, P 98-101.
- 3.TemirovA.A."Arrali silindr konstruksiyasini takomillashtirishning yangi yo'llari" Ilm fan va ta'limda innovatsion yondashuvlar, muammolar, taklif va yechimlar 6- son 2020y
- 4.HojiyevM.T., Tillayev M.T "Paxtani dastlabki ishlash" ga oid izohli tayanch iboralar "Magistrlar" uchun uslubiy qo'llanma Toshkent, 2001y.